

CHE TILLINI O'RGANISH — IMKONIYATLAR ESHIGIMI YOKI ZAMONAVIY DUNYONING TALABI?

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 Xalqaro jurnalistika fakulteti 1 -kurs talabsi
 AXIZ 2403 Isomiddinova Ruhsora Muhiddin qizi*

Bugungi globallashuv davrida insoniyat oldida yangidan-yangi ufqlar ochilmoqda. Aloqa, ta'lif, texnologiya va iqtisodiyot borasidagi taraqqiyotlar insonlar o'rta sidagi chegara va masofalarni asta-sekin yo'qqa chiqarmoqda. Shu jarayonda chet tillarini o'rganish masalasi ilgari bir ixtiyoriy ko'nikma bo'lgan bo'lsa, bugun u zaruratga aylanmoqda. Ammo bu o'zgarish aslida nimani anglatadi? Chet tillarini o'rganish imkoniyatlar eshigimi ochadi yoki u zamonaviy dunyoning bitmas tiganmas talabi sifatida bizga yuklanadimi?

Imkoniyatlar eshigi sifatida til bilish

Til — bu inson tafakkuri va dunyoqarashining kaliti. Har bir yangi til — yangi madaniyat, yangi fikrlash tarzi, yangi imkoniyat. Chet tilini bilgan inson faqatgina tarjima qilishni emas, balki dunyoni boshqa ko'z bilan ko'ra oladi. U boshqa jamiyatlar bilan fikr almasha oladi, o'z g'oyalarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniga ega bo'ladi. Til bilish kishiga xorijda ta'lif olish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, yuqori malakali kasb egasi bo'lish, madaniyatlararo ko'prik bo'lish imkonini yaratadi.

Bugun ingliz, koreys, nemis, fransuz, yapon yoki xitoy tillarini o'rganayotgan yoshlar faqat ish topish uchun emas, balki o'z shaxsiy imkoniyatlar doirasini kengaytirish, o'zini rivojlantirish uchun bu yo'lni tanlamoqda. Har bir yangi o'rganilgan til — bu o'zgarishlar sari ochilgan yangi eshik, inson tafakkurining kengayishi demakdir.

Zamonaviy dunyoning talabi sifatida til bilish

Boshqa tomondan esa, global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot til bilishni deyarli majburiy shartga aylantirdi. Internet tarmog'inining asosiy qismi ingliz tilida. Ilmiy maqolalar, dasturlash tillari, xalqaro biznes — barchasi chet tilini bilishni talab qiladi. Ko'plab sohalarda ingliz tilini bilmasdan o'z kasbida yetakchi bo'lish deyarli imkonsiz bo'lib qolmoqda.

Bu holat ba'zida yoshlar yoki mutaxassislar uchun bosim manbaiga aylanmoqda. "Tilni bilmasang, orqada qolasan" degan qarash tobora kuchayib bormoqda. Shuning uchun ko'pchilik til o'rganishni ilhom bilan emas, balki majburiyat, hattoki xavotir bilan qarshi olmoqda. Bu esa o'z navbatida til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni kamaytirishi mumkin.

Imkoniyat va talab o'rta sidagi muvozanat

Eng muhimi — chet tilini o‘rganishni faqat talab yoki majburiyat deb emas, balki bu talab ichida yashiringan imkoniyatni ko‘ra bilishdir. Chunki har bir zamonaviy talab aslida yangi bosqichdagi imkoniyatlarning belgisi bo‘lishi mumkin. Chet tilini o‘rganish — bu dunyoga ochilgan oynadir. U orqali inson o‘zining ichki potensialini ochadi, yangi do‘stilar orttiradi, o‘z fikrini boshqa til va madaniyatda ifoda etishni o‘rganadi.

Xulosa o‘rnida

Chet tilini o‘rganish zamonaviy dunyo talabimi? Ha. Bu haqiqat. Ammo bu talab ichida yashiringan imkoniyatlar son-sanoqsiz. Uni majburiyat deb emas, shaxsiy o‘sish yo‘lidagi kalit sifatida ko‘rgan inson hech qachon ortda qolmaydi. Har bir til — bu bir olam. Va bu olamga kirish uchun eshikni ochish, kalitni topish faqat o‘zimizga bog‘liq.